# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

**YASHIL**
**IQTISODIYOT&TARAQQIYOT**
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA "AKT XIZMATLARI"
TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHIYATI....14
Shermatov Sherzod Xotamovich
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI ....20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich
TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG'LARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRILADIGAN
LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI ....26
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI....33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O'ZBEKISTON
SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI ....38
Ne'matova Mavsuma,Xolmamatov Diyorbek
ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ
ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ....43
Буранова Лола Вахобовна
ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ
ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ
ТРАНСФОРМАЦИИ ....54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли
ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING
USLUBIY JIHATLARI....60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS
XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA ....64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR
XORIJIY TAJRIBALARI
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI ....73
Abdullo Sohibov
O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING
HUDUDIY XUSUSIYATLARI ....84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich
KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)
ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ....91
Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI
HOLATI TAHLILI....95
Dadajonova Madina Ravshan qizi
O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI
QO'LLASHNING DOLZARB MASALALARI ....100
Ochilov Farhod Malikovich
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI
BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA)....106
Hayitov Jamshid Xolboyevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 111

**Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi**

IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI ..... 118

**Ollokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi**

MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR ..... 122

**Karimova Iroda Abdusattarovna**

KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI ..... 128

**Qurbonov Abror Abdullayevich**

GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY ..... 133

**Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li**

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI ..... 142

**Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi**

ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА ..... 148

**Джураева Гузаль Шавкатовна**

BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH ..... 156

**Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOXOBCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 161

**Marqayev Xurshid Aliqulovich**

THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS ..... 165

**Zafar Qodirov Abdivaxobovich**

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH ..... 170

**Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich**
**Shukurova Nilufar Qahramonova**

IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY ..... 175

**Mirzaev Kulmamat Djanzakovich**

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 179

**Aliyev Arslon Salom o'g'li**

A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS ..... 184

**Wang Biao**

USTAMA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH ..... 190

**Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna**

INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI ..... 195

**Aliqulov Abbos Baxtiyor o'g'li**

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 202

**Xudoyorov Lochinbek Bahromovich**

MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 207
**Elomonov Dadaxon Ozodullayevich**
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI ........ 213
**L.S. Azimova**
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING ........ 218
**Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li**
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI ........ 223
**Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li**
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI ........ 227
**Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna**
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH ........ 232
**Nurmanov Sherzod Xujayarovich**
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI ........ 237
**Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li**
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI ........ 242
**Raximov Azizbek Saliyevich**
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: AQSH MISOLIDA ........ 246
**Kurbanov Baxodir Negmatullayevich**
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI ........ 250
**Ashurova Shaxnoza Almasovna**
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 257
**Sharipova Shahlo Istamovna**
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 262
**Xudoyorov Lochinbek Bahromovich**
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQISHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA ........ 278
**Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti**
**Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich**
O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI ........ 283
**Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi**
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH ........ 289
**Bozorova Madina Raxmat qizi**
IMPROVING SERVICE QUALITY MONITORING IN SERVICE ENTERPRISES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES ........ 294
**Xudoyorov Lochinbek Bahromovich**
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 299
**Ortiqov Husan Usmonaliyevich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI ... 304
**Abdusalomov Ozodbek Baxtiyor o‘g‘li**
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA ... 311
**Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna**
O‘ZBEKISTONDA EKSPORTNI OSHIRISHDA AKT RIVOJLANISHINING O‘RNI ... 315
**Sadriddinov Ulug‘bek Jaloliddin o‘g‘li**
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI ... 322
**Xusanov Kamoliddin Xolmamat o‘g‘li**
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI ... 326
**Abdullo Sohibov**
SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ... 331
**Davronov Sanjar Ziyotovich**
SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ... 336
**Ashrapova Noilaxon Niyazxanovna**
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR ... 340
**Ochilov Baxtiyor Muminjonovich**
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING ... 346
**Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin ugli**
SIRKULYAR IQTISODIYOTGA O‘TISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR ... 351
**Astanakulov Olim Tashtemirovich**
**Muxammad Id Balbaa (Muhammad Eid Balbaa)**
**Habibe Elif Kutlugun (Habibe Elif Kutlugun)**
GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI FONIDA EKOLOGIK SIYOSAT VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI ... 357
**Xamzayev Abdushukur Xudoyqulovich**
INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES FOR UZBEKISTAN'S TEXTILE INDUSTRY: CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND ECONOMETRIC EVIDENCE ... 362
**Aziz Kurbanovich Abdullaev**
**Sarvarbek Allayev Erkin ugli**
**Shavkat Asrolovich Ruziev**
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES ... 369
**Mirzaev Kulmamat Djanzakovich**
TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA SOLIQQA TORTISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI (“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJ MISOLIDA) ... 373
**Barotov Baxtiyor Vaxobovich**
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O‘RNI ... 377
**Muxitdinova Kamola Alisherovna**
TRANSPORT LOGISTIKASIDA TAVAKKALCHILIKLARNI SUG‘URTALASH: O‘ZBEKISTON VA AQSH TAJRIBASI ASOSIDA TAQQOSIY TAHLIL ... 381
**Jabborov Islom Xusan o‘g‘li**
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI BARQAROR BOSHQARISH ... 385
**Xayrullayev Shaxram Yunus o‘g‘li**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SERVIS KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATI BOSHQARUVINING ZAMONAVIY MODELLARI ........ 392
**Xudoyorov Lochinbek Bahromovich**
BIZNES JARAYONLARI MONITORINGI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI........ 398
**Dadajonova Madina Ravshan qizi**
SIRKULYAR IQTISODIYOT KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHNI BAHOLASH KO'RSATKICHLARINI (INDIKATORLARINI) SHAKLLANTIRISH........ 403
**Sharifxo'jayeva Xonzodaxon A'lo qizi**
TURIZM QISHLOQLARINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA INDIKATORLARI TIZIMI ........ 408
**Xudaynazarova Dilorom**

# TURIZM QISHLOQLARINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA INDIKATORLARI TIZIMI

**Xudaynazarova Dilorom**
**Oriental universiteti dotsenti, PhD**
**ORCID: 0009-0004-9551-6188**
**Email:** dilorom2019@list.ru

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turizm qishloqlarini shakllantirish mezonlari hamda ularni baholash indikatorlari tizimini ilmiy-uslubiy asosda ishlab chiqish masalalari tahlil etilgan. Tadqiqotda turizm qishlog‘i tushunchasining nazariy asoslari qishloq turizmi, barqaror rivojlanish, hamjamiyatga asoslangan yondashuv va destinatsiya boshqaruvi konsepsiyalari kesishmasida yoritilgan. Muallif tomonidan turizm qishlog‘ini baholash mezonlari yetti asosiy blokka ajratilib, ular resurs va identiklik, mehmondo‘stlik va qiymat zanjiri, infratuzilma, ijtimoiy ta’sir, barqarorlik, boshqaruv hamda raqamli reputatsiya kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shuningdek, maqolada indikatorlar tizimini shakllantirishda rasmiy statistika, ekspert bahosi va raqamli ma’lumotlarni integratsiyalash zarurligi asoslab berilgan. Indikatorlar bazaviy va diagnostik guruhlarga ajratilib, hududlarning minimal tayyorgarligi va rivojlanish sifati bosqichma-bosqich baholanishi taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** turizm qishlog‘i, baholash mezonlari, indikatorlar tizimi, barqaror turizm, qishloq turizmi, destinatsiya boshqaruvi, raqamli reputatsiya, infratuzilma, mehmondo‘stlik, ijtimoiy ta’sir, kompozit indeks, monitoring, hududiy rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье анализируются вопросы научно-методического обоснования критериев формирования туристских деревень и системы их оценки на основе индикаторов. Теоретические основы понятия туристской деревни раскрываются на пересечении концепций сельского туризма, устойчивого развития, туризма, основанного на сообществе, и управления дестинациями. Автором предложено деление критериев оценки туристской деревни на семь основных блоков, включающих ресурсы и идентичность, гостеприимство и цепочку создания стоимости, инфраструктуру, социальное воздействие, устойчивость, управление, а также цифровую репутацию. Кроме того, в статье обоснована необходимость интеграции официальной статистики, экспертных оценок и цифровых данных при формировании системы индикаторов. Индикаторы подразделяются на базовые и диагностические группы, что позволяет поэтапно оценивать минимальную готовность территорий и качество их развития.

**Ключевые слова:** туристская деревня, критерии оценки, система индикаторов, устойчивый туризм, сельский туризм, управление дестинацией, цифровая репутация, инфраструктура, гостеприимство, социальное воздействие, композитный индекс, мониторинг, территориальное развитие.

**Abstract:** This article analyzes the scientific and methodological foundations for developing criteria for tourism villages and a system of indicators for their assessment. The theoretical concept of a tourism village is examined at the intersection of rural tourism, sustainable development, community-based tourism, and destination management approaches. The author proposes a classification of evaluation criteria into seven key blocks, including resources and identity, hospitality and value chain, infrastructure, social impact, sustainability, governance, and digital reputation. Furthermore, the study substantiates the importance of integrating official statistics, expert assessments, and digital data in the development of the indicator system. The indicators are divided into basic and diagnostic groups, enabling a step-by-step assessment of territorial readiness and the quality of development.

**Keywords:** tourism village, evaluation criteria, indicator system, sustainable tourism, rural tourism, destination management, digital reputation, infrastructure, hospitality, social impact, composite index, monitoring, regional development.

## KIRISH

Turizm qishlog‘ini rivojlantirish masalasida eng muhim metodologik vazifalardan biri uni shakllantirish mezonlari hamda baholash indikatorlari tizimini ilmiy asosda belgilashdan iborat. Chunki turizm qishlog‘i tushunchasi nazariy jihatdan qanchalik to‘liq izohlanmasin, agar u amaliy jihatdan o‘lchanadigan mezonlar va ko‘rsat-

kichlar tizimiga ega boʻlmasa, hududlarni qiyoslash, ustuvor yoʻnalishlarni aniqlash, investitsiya loyihalarini tanlash hamda boshqaruv qarorlarini asoslash qiyinlashadi.

Turizm qishlogʻini shakllantirish mezonlari tasodifiy yoki faqat maʼmuriy qaror asosida belgilanmasligi kerak. Ular, avvalo, turizm qishlogʻining nazariy mohiyatidan kelib chiqishi lozim. Mazkur tushuncha qishloq turizmi, hamjamiyatga asoslangan turizm, barqaror turizm va destinatsiya boshqaruvi yondashuvlari kesishmasida shakllanadi. Demak, mezonlar ham aynan shu toʻrtta nazariy blokning operatsion ifodasi boʻlishi kerak. Qishloq turizmi nuqtayi nazaridan ular hududning resurs bazasi va tajriba salohiyatini, hamjamiyatga asoslangan yondashuv nuqtayi nazaridan mahalliy ishtirok va manfaatdorlikni, barqaror turizm nuqtayi nazaridan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni, destinatsiya boshqaruvi nuqtayi nazaridan esa koordinatsiya, standartlar, xavfsizlik, marketing va monitoringni aks ettirishi zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda “qishloq turizmi”, “village tourism”, “rural destination”, “community-based rural tourism” va “tourism village” atamalari koʻpincha bir-biriga yaqin maʼnoda qoʻllanadi, biroq mazmun jihatdan ular aynan bir xil emas. UNWTO Tourism Definitions hujjatida turizm va turizm qiymat zanjiri operatsion jihatdan aniqlashtirilgan boʻlsa, Rosalina, Dupre va Wangning tizimli sharhida qishloq turizmini tavsiflashda joylashuv, tajribaviylik, barqarorlik va hamjamiyatga asoslanganlik komponentlari ustuvor ekani koʻrsatiladi. Demak, “qishloq turizmi” kengroq maydonni anglatadi, “turizm qishlogʻi” esa ushbu maydonning nisbatan institutsionallashgan va boshqariladigan shaklidir.

Ayrim mahalliy tadqiqotlarda turistik hudud, jozibadorlik va destinatsiya kabi kategoriyalarning nazariy chegaralarini aniqlashtirish masalasi ham koʻtarilgan. Jumladan, S.R. Bobokalonov turistik jozibadorlik tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda keng qoʻllanishiga qaramay, uning yakdil yondashuv asosidagi mustaqil kategoriya sifatida hali toʻliq shakllanmaganini taʼkidlaydi. Mazkur mulohaza turizm qishlogʻi konsepsiyasi uchun ham dolzarbdir, chunki qishloq hududida ayrim resurslarning mavjudligi hali uni toʻlaqonli turizm qishlogʻiga aylantirmaydi. Buning uchun resursdan tashqari turistni qabul qilish, ushlab turish, xarajatini koʻpaytirish, qayta tashrifini ragʻbatlantirish va hudud manfaatlariga qaytarish mexanizmi ham mavjud boʻlishi kerak.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavjud boʻlgan ilmiy tadqiqotlarni oʻrganish, turizm qishloqlarining shakllanishini qiyosiy solishtirish, statistik maʼlumotlarni oʻrganish hamda iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, maʼlumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shu nuqtayi nazardan turizm qishlogʻini shakllantirish mezonlariga bir nechta ilmiy talablar qoʻyiladi. Birinchidan, mezonlar kompleks boʻlishi kerak, yaʼni hududning faqat resurs salohiyatini emas, balki ushbu salohiyatni turistik mahsulotga aylantirish qobiliyatini ham aks ettirishi lozim. Ikkinchidan, ular oʻlchanadigan boʻlishi zarur, aks holda baholash subyektivlikka moyil boʻladi. Uchinchidan, mezonlar qiyoslanadigan boʻlishi kerak, chunki turizm qishloqlarini reytinglash va ustuvorlashtirish uchun turli hududlar bir xil metodika boʻyicha baholanishi lozim. Toʻrtinchidan, mezonlar monitoring uchun qulay boʻlishi kerak, yaʼni ularni vaqt oʻtishi bilan qayta oʻlchash va natijalarni taqqoslash imkoni saqlanishi lozim. OECDning turizm siyosati boʻyicha tahlillari aynan shunday granular va siyosatga mos maʼlumotlar zarurligini alohida taʼkidlaydi [2].

Bundan tashqari, turizm qishlogʻi mezonlari uning ikki tomonlama tabiatini ham hisobga olishi kerak. Bir tomondan, u hududiy rivojlanish loyihasi sifatida resurslar, aholi, infratuzilma va boshqaruv bilan bogʻliq. Ikkinchi tomondan, u bevosita turizm va mehmonxona faoliyati tizimiga taalluqli boʻlib, joylashtirish vositalari, ovqatlanish, servis sifati, turist qoniqishi va onlayn reputatsiya bilan oʻlchanadi. Shu sababli shakllantirish mezonlari tizimini qurishda makro darajadagi hududiy parametrlar bilan bir qatorda mikro darajadagi mehmondoʻstlik indikatorlarini ham birlashtiruvchi model maqsadga muvofiq boʻladi. Aynan shu yondashuv keyinchalik turizm qishlogʻini bir yoqlama emas, koʻp qatlamli diagnostika obyekti sifatida koʻrish imkonini beradi.

Turizm qishlogʻini shakllantirish mezonlarini belgilashda birinchi tayanch manba sifatida Best Tourism Villages by UN Tourism hujjatlari xizmat qiladi. 2026-yilgi Areas of Evaluation hujjatiga koʻra, qishloqning aholi soni 15 ming kishidan oshmasligi, past aholi zichligiga ega boʻlishi, anʼanaviy iqtisodiy faoliyatlar bilan tavsiflanadigan landshaftda joylashishi va jamiyat qadriyatlari hamda turmush tarzini saqlagan boʻlishi kerak [3]. Bundan tashqari, baholash madaniy va tabiiy resurslar, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik, turizm qiymat zanjiri integratsiyasi, boshqaruv, infratuzilma, sogʻliq, xavfsizlik va himoya kabi yoʻnalishlar asosida olib boriladi. Ushbu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, u turizm qishlogʻini faqat “bor yoki yoʻq” logikasida emas, koʻp mezonli tayyorgarlik va sifat modeli sifatida koʻradi.

O‘zbekiston milliy amaliyotida esa “turizm qishlog‘i” maqomini berish mezonlari nisbatan konkret va institutsional xarakterga ega. PF-5781-son Farmon va unga bog‘liq normativ hujjatlar doirasida yuqori turizm salohiyatiga ega fuqarolar yig‘inlarida mehmon uylari, xizmatlar turlari, hududni turizm yo‘nalishlariga bog‘lash, joylashuv, aholi, maydon va hududni tartibga solish kabi parametrlar amaliy mezon sifatida qo‘llanadi [4]. PQ-232-son qarorda esa piyodalar uchun mos infratuzilma, sanitariya-gigiyena shoxobchalari, chiqindi qutilari, yong‘in xavfsizligi, tez tibbiy yordam, xaritalash va raqamli yechimlar kabi amaliy choralar nazarda tutiladi [5]. Bu milliy yondashuv turizm qishlog‘ining tashkiliy-amaliy tayyorgarligini baholash uchun muhimdir, biroq u doimo to‘liq qiyosiy monitoring tizimini bermaydi (1-jadval).

**1-jadval**

**Turizm qishlog‘ini shakllantirishning bazaviy mezonlari**

| Mezonlar guruhi | Mazmuni | Asosiy manbalar |
|---|---|---|
| Resurs va identiklik | tabiiy resurslar, tarixiy-madaniy meros, landshaft, gastronomiya, lokal qadriyatlar | UN Tourism, milliy ariza ma’lumotlari |
| Mehmondo‘stlik va qiymat zanjiri | mehmon uylari, joylashtirish sifati, ovqatlanish, tajriba xizmatlari, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va hunarmandlarning integratsiyasi | UN Tourism, PF-5781, PQ-232 |
| Infratuzilma va kirish imkoniyati | transport, sanitariya, navigatsiya, aloqa, internet, xaritalash, sog‘liq va xavfsizlik xizmatlari | UN Tourism, PQ-232, VMQ-433 |
| Hamjamiyat va ijtimoiy barqarorlik | bandlik, mahalliy ishtirok, daromadlar, xizmatlar yaratish, ijtimoiy rozilik | community-based tourism tadqiqotlari, milliy maqsadlar |
| Boshqaruv va monitoring | alohida boshqaruv tuzilmasi, hamkorlik, marketing, ma’lumotlar yig‘ish, reyting va audit | UN Tourism, OECD, milliy normativ baza |

Xalqaro va milliy yondashuvlarning qiyosiy tahlili asosida turizm qishlog‘ini shakllantirish mezonlarini yetti asosiy blokka ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: resurs va identiklik; mehmondo‘stlik va qiymat zanjiri; infratuzilma va kirish imkoniyati; hamjamiyat va ijtimoiy ta’sir; barqarorlik; boshqaruv va monitoring; raqamli reputatsiya va bozor signalari [6]. Mualliflik yondashuvining ustun tomoni shundaki, unda raqamli reputatsiya alohida blok sifatida ajratiladi. Bu esa qishloq darajasidagi rasmiy statistik ma’lumotlar cheklangan sharoitda bozor tomonidan qabul qilinish, ko‘rinuvchanlik va turist idrokini hisobga olish imkonini beradi. 1-jadval aynan ushbu bazaviy mezonlar karkasini umumlashtiradi [7].

Turizm qishlog‘i indikatorlari tizimi mezonlar tizimining miqdoriy va sifat jihatdan ifodalangan shaklidir. Mazkur tizimni ishlab chiqishda kamida uch turdagi ma’lumot manbalarini integratsiyalash zarur. Birinchi turga rasmiy statistik va ma’muriy ma’lumotlar kiradi: turistlar soni, tunashlar, joylashtirish vositalari soni, xizmatlar ko‘lami, infratuzilma obyektlari va bandlik kabi ko‘rsatkichlar [8]. Ikkinchi turga ekspert, so‘rovnoma va mahalla darajasidagi kuzatuv ma’lumotlari kiradi. Uchinchi tur esa raqamli izlar bo‘lib, booking platformalari, Google Maps, sharhlar, reytinglar, kontent to‘liqligi va onlayn ko‘rinuvchanlikni o‘z ichiga oladi. Mazkur uch qatlamni birlashtirish Buxoro viloyati sharoitida eng realistik yondashuv hisoblanadi.

Metodik jihatdan indikatorlarni input, process, output va outcome bloklariga ajratish mumkin. Input indikatorlari hududning boshlang‘ich resurs va infratuzilma bazasini tavsiflaydi. Process indikatorlari boshqaruv, marketing, xizmat ko‘rsatish va hamjamiyat ishtirokining borishini aks ettiradi [9]. Output indikatorlari turist oqimi, tunashlar, xizmatlar xilma-xilligi va operatsion natijalarni ko‘rsatadi. Outcome indikatorlari esa daromad, qoniqish, reputatsiya, barqarorlik va hududiy foydani aks ettiradi. Bunday ko‘p pog‘onali yondashuv indikatorlarni oddiy ro‘yxat sifatida emas, sabab-oqibat zanjiri bilan bog‘langan diagnostik tizim sifatida qurish imkonini beradi.

2-jadvalda turizm qishlog‘ini baholashning qisqa indikatorlar tizimi keltirilgan. Mazkur jadval hududning resurs, servis, infratuzilma, ijtimoiy, ekologik, boshqaruv va raqamli holatini kompleks tarzda tavsiflaydi. Jadvaldagi bloklarning tadqiqot uchun uslubiy qiymati shundaki, ular keyingi boblarda alohida ko‘rsatkichlarga operatsionlashtirilishi, balli baholashga o‘tkazilishi va kompozit indeksga integratsiya qilinishi mumkin. Bunda indikatorlar sonini haddan tashqari ko‘paytirish emas, balki ularning reprezentativligi va audit qilinuvchanligini ta’minlash muhimdir (2-jadval) [10].

**2-jadval**

**Turizm qishlog‘ini baholashning qisqa indikatorlar tizimi**

| Baholash bloki | Integral indikator | Turi | Manba | Baholash usuli | Tadqiqotdagi vazifasi |
|---|---|---|---|---|---|
| Resurs va identiklik | Turistik resurs va lokal identiklik salohiyati | bazaviy va diagnostik | reyestr, kuzatuv, ekspert | hisoblash va scoring | boshlang‘ich jozibadorlikni aniqlash |
| Mehmondo‘stlik va qiymat zanjiri | Mehmondo‘stlik xizmatlari rivojlanganligi | bazaviy va diagnostik | reyestr, so‘rovnoma, turist fikri | statistik va balli baholash | servis va taklif kengligini baholash |
| Infratuzilma va kirish imkoniyati | Infratuzilma va accessibility darajasi | bazaviy va diagnostik | monitoring, mahalliy ma’lumotlar | checklist va ekspert bahosi | qabul qilish va yetib kelish qulayligini aniqlash |
| Hamjamiyat va ijtimoiy ta’sir | Aholi ishtiroki va ijtimoiy samaradorlik | bazaviy va diagnostik | so‘rovnoma, mahalla ma’lumoti | statistik va sotsiologik baholash | ijtimoiy legitimlikni aniqlash |
| Barqarorlik | Ekologik va ijtimoiy barqarorlik holati | diagnostik | monitoring, hujjatlar, ekspert | scoring va tahlil | barqaror rivojlanish mezonini baholash |
| Boshqaruv va marketing | Boshqaruv va ilgari surish tizimi holati | bazaviy va diagnostik | hujjatlar, intervyu, ekspert | verifikatsiya va scoring | institutsional tayyorgarlikni aniqlash |
| Raqamli reputatsiya | Raqamli ko‘rinuvchanlik va onlayn reputatsiya | diagnostik | platformalar va sharhlar | platforma auditi va kontent tahlili | bozor signali va raqamli pozitsiyani baholash |

1-rasmda indikatorlar piramida modeli keltirilgan bo‘lib, u turizm qishlog‘ini baholashning ko‘p darajali logikasini ifodalaydi. Birinchi daraja poydevor sifatida resurs bazasini, ikkinchi daraja bazaviy tayyorgarlikni, uchinchi daraja diagnostik sifat ko‘rsatkichlarini, to‘rtinchi daraja bozor signalari va raqamli ko‘rinuvchanlikni, beshinchi daraja esa integral baho va reytinglashni aks ettiradi. Mazkur piramida indikatorlar tizimining oddiy enumerativ ro‘yxat emas, balki “pastdan yuqoriga” tamoyili asosida ishlovchi baholash modeli ekanini ko‘rsatadi [11]. Ya’ni yuqori integral bahoga chiqish uchun poydevor va infratuzilma qatlamlari oldindan shakllangan bo‘lishi kerak.

Indikatorlarni tanlashda ularning metodik sifati alohida e’tiborga olinishi zarur. Birinchi talab – relevantlik, ya’ni indikator turizm qishlog‘i konsepsiyasining muhim tomonini aks ettirishi kerak. Ikkinchi talab – o‘lchanish imkoniyati, ya’ni indikatorni rasmiy ma’lumot, checklist, ekspert bahosi yoki raqamli audit orqali aniq qayd etish mumkin bo‘lishi lozim. Uchinchi talab – qiyoslanuvchanlik, ya’ni turli qishloqlar uchun bir xil mezon qo‘llanishi zarur. To‘rtinchi talab – sezgirlik, ya’ni indikator hududdagi amaliy o‘zgarishlarni vaqt o‘tishi bilan aks ettira olishi kerak. Beshinchi talab – verifikatsiyalanish, ya’ni natijalar takror tekshiruvga yaroqli bo‘lishi lozim. Aynan mana shu talablar VAK nuqtayi nazaridan metodikaning himoyaviy kuchini oshiradi (1-rasm).




**1-rasm. Turizm qishlog‘ini baholash indikatorlarining piramida modeli**

Shu sababli mualliflik metodikasida indikatorlarni ikki yirik turga ajratish taklif etiladi: bazaviy indikatorlar va diagnostik indikatorlar. Bazaviy indikatorlar hududning turizm qishlog‘i sifatida minimal tayyorgarligini aniqlaydi [12]. Bunga mehmon uylari soni, asosiy xizmatlar, yo‘l, sanitariya, resurslar va internet kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Diagnostik indikatorlar esa rivojlanish sifati, bozor jozibadorligi va barqarorlikni aniqlaydi. Bunga turist qoniqishi, occupancy, onlayn reyting, hamjamiyat manfaatdorligi, boshqaruv sifati, ekologik amaliyot va raqamli reputatsiya kiradi. 3-jadval ushbu farqlanishning mazmunini ko‘rsatadi va baholashning ikki bosqichli modelini shakllantiradi.

Buxoro viloyati sharoitida indikatorlar tizimini ishlab chiqishda rasmiy va norasmiy ma’lumotlarni integratsiyalash alohida metodik qoida sifatida qo‘llanishi zarur [13]. Rasmiy ma’lumotlar hududning obyektiv holatini ko‘rsatsa, platformalar, sharhlar, Google Maps, fotosuratlar, ekspert anketalari va joyiga chiqib kuzatish turist idroki, xizmat sifati va destinatsiya reputatsiyasi haqida qo‘shimcha axborot beradi. Ayniqsa, qishloq turizmi subyektlari kichik miqyosda faoliyat yuritgani sababli, ularning real bozor qobiliyatini faqat hisobot ko‘rsatkichlari bilan aniqlash qiyin. Shu bois raqamli audit va ekspert kuzatuvi tadqiqot metodologiyasining periferik emas, markaziy qismi bo‘lishi lozim (3-jadval).

**3-jadval**
**Bazaviy va diagnostik indikatorlarning farqlanishi**

| Indikator turi | Asosiy vazifasi | Namunaviy ko‘rsatkichlar | Baholash bosqichi | Boshqaruvdagi vazifasi |
|---|---|---|---|---|
| Bazaviy indikatorlar | Hududning turizm qishlog‘i sifatida minimal tayyorgarligini aniqlash | mehmon uylari soni, xizmatlar turlari, yo‘l mavjudligi, sanitariya, asosiy resurslar, aholi soni | 1-bosqich | Maqom olishga tayyorlikni baholash |
| Diagnostik indikatorlar | Rivojlanish sifati, bozor jozibadorligi va barqarorlikni aniqlash | turist qoniqishi, occupancy, onlayn reyting, hamjamiyat manfaatdorligi, boshqaruv sifati, ekologik amaliyot | 2-bosqich | Zaif va kuchli tomonlarni aniqlash, reytinglash va rivojlantirish yo‘l xaritasini ishlab chiqish |

Mazkur paragrafning yana bir muhim natijasi shundan iboratki, turizm qishlog'ini shakllantirish mezonlari va indikatorlari tizimi faqat maqom berish uchun emas, balki keyingi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ham xizmat qilishi kerak. Ya'ni indikatorlar qaysi hudud birinchi bosqichda turizm qishlog'i maqomini olishga tayyor, qaysi hudud esa dastlab infratuzilma yoki servis bo'yicha qo'shimcha tayyorgarlikka muhtoj ekanini ko'rsatishi lozim. Shu bilan birga, diagnostik qatlam qaysi hududning kuchli va zaif tomonlari qayerda ekanini aniqlab, rivojlantirish yo'l xaritasini ishlab chiqish imkonini beradi [14].

Shunday qilib, turizm qishloqlarini shakllantirish mezonlari va indikatorlari tizimi nazariy-uslubiy jihatdan asoslandi. Natijada mezonlarni yetti blokka ajratish, indikatorlarni esa bazaviy va diagnostik ko'rsatkichlar kombinatsiyasida qurish maqsadga muvofiq ekani aniqlandi. Mazkur tizim rasmiy statistika, ekspert bahosi va raqamli ma'lumotlar integratsiyasiga tayangan holda keyingi boblarda balli baholash, kompozit indeks va hududiy qiyosiy tahlilni ishlab chiqish uchun bevosita uslubiy tayanch vazifasini bajaradi. Shu tariqa indikatorlar tizimi amalda ishlashi uchun unga mos institutsional va boshqaruv mexanizmi ham zarur bo'ladi.

Turizm qishlog'ini baholashning mualliflik karkasi "minimal tayyorgarlik + rivojlanish sifati" logikasiga tayangan holda quriladi. Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, u hududni birdaniga yuqori standartlar bilan emas, avvalo bazaviy tayyorgarlik mezonlari bilan ko'rib chiqadi. Agar qishloqda minimal xizmatlar, kirish imkoniyati va sanitariya sharoitlari shakllanmagan bo'lsa, uning yuqori darajadagi marketing yoki raqamli reputatsiyasi barqaror samara bermaydi [15]. Aksincha, bazaviy poydevor mavjud hududlarda diagnostik indikatorlar orqali chuqurroq sifat tahlilini o'tkazish mumkin bo'ladi. Bu esa metodikani amaliyotga yaqinlashtiradi va turizm qishloqlarini rivojlantirish bo'yicha bosqichma-bosqich siyosat yuritish imkonini beradi.

Resurs va identiklik blokida indikatorlar faqat obyektlar sonini emas, ularning turistik tajriba yaratish qobiliyatini ham aks ettirishi lozim. Masalan, tarixiy obyektning mavjudligi o'z-o'zicha yetarli emas; uning talqini, yo'naltiruvchi navigatsiya, estetik holati, hikoya yaratish salohiyati va turistik marshrutga integratsiyasi ham muhimdir. Xuddi shuningdek, gastronomik yoki hunarmandchilik salohiyati faqat mavjud ustalar soni bilan emas, turist uchun tajriba formatiga aylantirilganlik darajasi bilan baholanishi maqsadga muvofiq. Shu orqali resurs bloki statik inventardan dinamik turistik kapital kategoriyasiga o'tkaziladi.

Mehmondo'stlik va qiymat zanjiri blokida indikatorlar joylashtirish vositalari soni bilangina cheklanmasligi kerak. Bu blokda mehmon uylari va ovqatlanish subyektlarining sifati, xizmatlarning xilma-xilligi, paketlashtirish, lokal yetkazib beruvchilar bilan aloqadorlik, gidlik, hunarmandchilik savdosi, transport va qo'shimcha tajriba xizmatlarining mavjudligi baholanishi zarur. Chunki turizm qishlog'ining iqtisodiy samarasi ko'p jihatdan turist xarajatini hudud ichida maksimal ushlab qolish va mahalliy subyektlar o'rtasida qayta taqsimlash qobiliyatiga bog'liq. Shuning uchun qiymat zanjiri indikatorlari faqat servis mavjudligini emas, uning hududiy integratsiya darajasini ham ko'rsatishi lozim.

Infratuzilma va kirish imkoniyati blokida yo'l, transport, sanitariya, internet, navigatsiya, xavfsizlik va sog'liqni saqlash xizmatlariga oid ko'rsatkichlar alohida o'rin tutadi. Mazkur blokning metodik ahamiyati shundaki, u turizm qishlog'ining "qabul qilish qobiliyati"ni tavsiflaydi. Ya'ni hudud resurslarga boy bo'lishi mumkin, biroq unga yetib borish noqulay, sanitariya sharoiti sust yoki mobil aloqa qamrovi zaif bo'lsa, turist tajribasi keskin pasayadi. Shu bois infratuzilma blokini yordamchi emas, bazaviy shartlar qatlami sifatida ko'rish to'g'ri bo'ladi [16].

Hamjamiyat va ijtimoiy ta'sir bloki turizm qishlog'ini oddiy iqtisodiy loyiha emas, mahalliy rivojlanish modeli sifatida ko'rish imkonini beradi. Bu yerda aholi bandligi, mahalliy tadbirkorlik, xotin-qizlar va yoshlar ishtiroki, mahalla instituti faolligi, aholi roziligi va turizm daromadlarining mahalliy taqsimlanishiga doir indikatorlar alohida ahamiyatga ega. Mazkur blok turizmning hududga "kirib kelishi" emas, balki hudud bilan "uyg'unlashishi" darajasini o'lchaydi. Shu sababli u nafaqat ijtimoiy, balki institutsional barqarorlikning ham indikatori hisoblanadi.

Barqarorlik, boshqaruv va raqamli reputatsiya bloklari esa metodikaning eng sezgir qismini tashkil etadi. Barqarorlik blokida ekologik amaliyotlar, tozalik, chiqindilarni boshqarish, merosni asrash va tashrif oqimining resurslarga bosimi inobatga olinadi. Boshqaruv blokida yo'l xaritasi, mas'ul subyektlar, monitoring, standartlar va rivojlantirish bo'yicha ichki mexanizmlar baholanadi. Raqamli reputatsiya blokida esa ko'rinuvchanlik, onlayn reyting, sharhlar soni va sifati, platformalardagi kontent to'liqligi, navigatsiya va axborot sifati hisobga olinadi. Aynan shu uch blok turizm qishlog'ining faqat mavjud holatini emas, uning kelajakdagi raqobatbardoshligini ham ko'rsatadi [17].

Mualliflik metodikasining ilmiy yangiligi shundaki, unda qishloq turizmini baholash uchun statistik, ekspert va raqamli ma'lumotlar bir vaqtning o'zida yagona konstruktsiyaga integratsiya qilinadi. Mavjud yondashuvlarda odatda ushbu manbalar alohida ishlatiladi: rasmiy statistika iqtisodiy natijalarni, ekspert bahosi sifat omillarini, raqamli platformalar esa turist idrokini aks ettiradi. Ushbu monografiyada esa ular bir-birini to'ldiruvchi uch qatlam sifatida talqin qilinadi. Natijada indikatorlar tizimi nafaqat boyroq axborot bazasiga ega bo'ladi, balki kichik hududlar bo'yicha ma'lumot tanqisligi muammosini ham qisman bartaraf etadi.

Shu bilan birga, indikatorlar tizimini haddan tashqari murakkablashtirishdan ehtiyot bo'lish lozim. Juda ko'p ko'rsatkichlar metodikani noqulay, qimmat va amaliyotga tatbiq etish qiyin holga keltirishi mumkin. Shu bois mazkur paragrafda taklif etilgan modelning yana bir afzalligi – uning modulliligidir. Ya'ni zarur hollarda bazaviy

panel qisqartirilgan holda qo'llanishi, chuqur tahlil zarur bo'lganda esa diagnostik panel kengaytirilishi mumkin. Bu moslashuvchanlik kelgusida Buxoro viloyatidagi qishloqlarni bosqichma-bosqich baholash va ustuvorlashtirishda juda muhim bo'ladi.

Indikatorlar tizimining himoyaviy kuchini oshirish uchun ularni verifikatsiya qilish mexanizmi ham oldindan ko'zda tutilishi kerak. Har bir indikator uchun ma'lumot manbasi, o'lchash birligi, baholash davriyligi, mas'ul yig'uvchi subyekt va qayta tekshirish usuli aniq ko'rsatilsa, metodika ilmiy jihatdan ancha barqaror bo'ladi. Bu ayniqsa ekspert bahosi va raqamli auditga asoslangan ko'rsatkichlar uchun muhimdir, chunki bunday ko'rsatkichlar bo'yicha subyektivlik xavfi nisbatan yuqori. Shuning uchun keyingi boblarda har bir indikatorni operatsionlashtirishda ushbu texnik tavsiflar alohida hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur paragrafda ishlab chiqilgan mezonlar va indikatorlar tizimi keyingi bosqichda scoring va kompozit indeks uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, hozircha nazariy-uslubiy darajada guruhlangan bloklar keyinchalik vazn, ball va integral ko'rsatkichlarga aylantiriladi.

Buxoro viloyati uchun amaliy nuqtayi nazardan qaralganda, taklif etilayotgan indikatorlar tizimi bir necha vazifani bajaradi. Birinchidan, u mavjud turizm qishloqlarining tayyorgarlik va rivojlanish darajasini qiyoslash imkonini beradi. Ikkinchidan, u hali maqom olmagan, biroq yuqori salohiyatga ega qishloqlarni aniqlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, u hududlar kesimida qaysi blok bo'yicha kamchilik ko'proq ekanini ko'rsatib, maqsadli siyosat choralarini ishlab chiqishga yordam beradi. To'rtinchidan, u vaqt o'tishi bilan rivojlanish dinamikasini kuzatish va prognozlash uchun boshlang'ich ma'lumot bazasini yaratadi.

**Xulosa va takliflar**

Turizm qishlog'ini baholash tizimi bazaviy va diagnostik indikatorlardan tashkil topishi, ushbu indikatorlar esa rasmiy statistika, ekspert bahosi va raqamli ma'lumotlar integratsiyasi asosida shakllanishi maqsadga muvofiqdir. Aynan mana shu tizim keyingi bobda hududlarni amaliy tahlil qilish, undan keyingi boblarda esa mualliflik metodikasi va institutsional mexanizmni ishlab chiqish uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Metodikaning amaliy qo'llanishi uchun indikatorlar panelini shakllantirishda “zarur minimum” va “kengaytirilgan tahlil” tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq. Zarur minimum panel bazaviy tayyorgarlikni aniqlash uchun yetarli bo'lgan ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi. Kengaytirilgan panel esa diagnostik va strategik maqsadlarda qo'llanadi. Bu yondashuv hududiy boshqaruv organlariga metodikani bosqichma-bosqich joriy etish imkonini beradi va ma'lumot yig'ish xarajatlarini ham optimallashtiradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, indikatorlar tizimi faqat mavjud holatni qayd etish emas, boshqaruvga teskari aloqa berish vazifasini ham bajarishi kerak. Ya'ni qaysi ko'rsatkich past bo'lsa, unga mos boshqaruv chorasini ishlab chiqish mumkin bo'lishi zarur. Shu jihatdan indikatorlar paneli diagnostika vositasi bilan birga, qaror qabul qilish vositasi sifatida ham loyihalanadi. Ana shu xususiyat uni oddiy statistik jadvaldan farqlab, amaliy boshqaruv instrumentiga aylantiradi.

Natijada taklif etilgan indikatorlar karkasi nazariy jihatdan asoslangan, amaliy jihatdan qo'llanadigan va kelgusida kompozit indeksga aylantirilishi mumkin bo'lgan tizim sifatida shakllantirildi. Uning kuchli tomoni – murakkablik va soddalik o'rtasidagi muvozanatni saqlaganidadir.

Shunday qilib, indikatorlar tizimi turizm qishlog'ini bir martalik ekspert bahosi emas, balki muntazam yangilanib turadigan boshqaruv paneli sifatida ko'rish imkonini beradi. Aynan mana shu jihat uning amaliy qo'llanish doirasini kengaytiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rosalina P.D., Dupre K., Wang Y. Rural tourism: A systematic literature review on definitions and challenges // Journal of Hospitality and Tourism Management. 2021. Vol. 47. P. 134–149.
2. Miller G., Torres-Delgado A. Measuring sustainable tourism: a state of the art review of sustainable tourism indicators // Journal of Sustainable Tourism. 2023. Vol. 31. No. 7. P. 1483–1496.
3. OECD. OECD Tourism Trends and Policies 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
4. UN Tourism. Best Tourism Villages by UN Tourism. Areas of Evaluation. 2026 Edition. Madrid, 2026.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.08.2019 yildagi “O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5781-son Farmoni // URL: https://lex.uz/docs/-4474527
6. Худайназарова Д. МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКОВ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ТУРИСТИЧЕСКОМ БИЗНЕСЕ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 682-687.
7. Худайназарова Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РИСКА И МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //Экономическое развитие и анализ. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 317-322.

8. Xudaynazarova D. Assessment of the dynamic capabilities of osborn textile and alchemy textile LLC //Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF. – 2023. – T. 8. – C. 139-145.

9. Xudaynazarova D. Digital transformation status analysis of textile industry enterprises in the country //Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF. – 2023. – T. 8. – C. 131-138.

10. Худайназарова Д. Х. "ПЕРЕУТОМЛЕНИЕ" ТУРИСТОВ И ПРОБЛЕМА OVERTOURISM ДЛЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕНЬ УЗБЕКИСТАНА //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – Т. 3. – №. 36. – С. 97-107.

11. Худайназарова Д. Зарубежный Опыт Развития Туристических Деревень //Economic Development and Analysis. – Т. 3. – №. 9. – С. 290-305.

12. Xayrullaevna X. D. TURIZM QISHLOG'I KONSEPSIYASINING QISHLOQ TURIZMI VAMEHMONXONA FAOLIYATI INTEGRATSIYASI NUQTAYI NAZARIDANNAZARIY YONDASHUVLARI //Marketing Jurnali. – 2026. – №. 3.

13. Xayrullaevna X. D. TURIZM QISHLOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASIVA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI //Marketing Jurnali. – 2026. – №. 3.

14. Худайназарова Д. ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИ БОШҚАРИШДАГИ РИСК ВА МЕХАНИЗМЛАРНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 1 (2), 317–322

Худайназарова Д.Х. "ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ТУРИЗМА" экономическое развитие и анализ 3 (10), 223-231

Худайназарова Д. Зарубежный Опыт Развития Туристических Деревень //Economic Development and Analysis. – Т. 3. – №. 9. – С. 290-305.

Худайназарова Д. Х. "ПЕРЕУТОМЛЕНИЕ" ТУРИСТОВ И ПРОБЛЕМА OVERTOURISM ДЛЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕНЬ УЗБЕКИСТАНА //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – Т. 3. – №. 36. – С. 97-107.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.07.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 433-son qarori // URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-4930291

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li



**2026. № 4 (2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.


El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07


Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz